



# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



Digital object  
identifier



Google  
Scholar



OpenAIRE



**“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI”  
MAVZUSIDA XALQARO ILMIY-NAZARIY OFLAYN-ONLAYN ANJUMANI**

---

**PROFESSOR RAHMATULLA BARAKAYEVNING 70 YILLIGI**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

Professor  
**RAHMATULLA BARAKAYEVNING**  
70 yilligiga bag‘ishlangan

**O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB  
MASALALARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
**MATERIALLARI TO‘PLAMI**

---

Toshkent, O‘zbekiston

**COLLECTION OF MATERIALS**  
from the international scientific and practical conference  
**THE CURRENT ISSUES OF UZBEK LITERARY  
CRITICISM**

---

Tashkent, Uzbekistan

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ**  
международной научно-практической конференции  
**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ УЗБЕКСКОЙ  
ЛИТЕРАТУРНОЙ КРИТИКИ**

---

Ташкент, Узбекистан



YŷK 821.512.133.09(08)

КБК 83.3(50)

“O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent: 2024 - y., – 786 b.

Ushbu to‘plamga O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi katta ilmiy xodimi, professor Rahmatulla Barakayev tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlab O‘zR Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida o‘tkazayotgan “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari kiritilgan.

### Maqola mazmuni uchun mualliflar mas‘ul

Mas‘ul muharrirlar  
**Nizomiddin MAHMUDOV,**  
**Jabbor ESHONQULOV**

To‘plab nashrga tayyorlovchi  
**Farxod KENJAYEV**

Taqrizchilar  
**Hamidulla BOLTABOYEV,**  
*Filologiya fanlari doktori, professor;*  
**Dilmurod QURANOV,**  
*Filologiya fanlari doktori, professor.*

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon bo‘limining 2024-yil 10-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan 2-sonli majlis qarori bilan o‘tkazishga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9910-9258-7-0

© O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi  
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, 2024



– Uch o‘g‘limni qanday qilib o‘qitamanu qanday qilib uyli-joyli qilaman? – deb ko‘p g‘am chekar edim.

Shunday paytlarda Rahmatulla aka hamisha:

– Hali o‘g‘illaringiz ulg‘ayib, qanotingiz ostiga kirishadi va bu qiyinchiliklaringiz esingizdan chiqib ketadi, – deb ko‘nglimni ko‘tarar edi.

Chindan ham shunday bo‘ldi.

### **Ko‘cha hayvoni**

– Erkak – ko‘cha hayvoni, – deydi doim Rahmatulla aka.

Chindan ham, oila tebratish, ro‘zg‘orini but qilish uchun erkakning umri ko‘chada o‘tadi.

O‘z-o‘zidan bolalar tarbiyasining asosiy yuki ona zimmasiga tushadi.

Bola tarbiyasida onaning muhim o‘rin tutishi shundan.



**HAQIQIY ZIYOLI YOKI BARCHANING RAHMATILLA AKASI...**

**Shoira Axmedova**

*BuxDU, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası  
professori, filologiya fanlari doktori*

Mustaqil yurtimizning nomini ko‘tarishga, uning sha‘nini yuksaltirishga intilayotgan insonlar olimu ulamolar orasida juda ko‘p, negaki, “ Vatan bir bog‘dir. Vatanning sodiq farzandlari bu bog‘ni o‘z yurak qonlari bilan sug‘ormaklari darkordir”,-degan edi jadid bobolarimizdan biri. Nazarimizda bu bog‘ni gullatadigan, taraqqiy ettiradigan farzandlari orasida ziyolilarning o‘rni juda katta. “Ziyoli o‘lmak g‘oyat mushkul bir narsadir,-deb yozgan edilar Munavvarqori.- Ziyoli millat, Vatan nima edig‘ini bilur va ziyoli millat uchun jonini, molini fido etar va millatning taraqqiysi uchun doimo harakat etar.Vahti kelganda, millat uchun o‘zini halokat vartasina tashlamakka muhayyo bo‘lur. Sizning bilmagingiz lozimdirki, bizning millatimizg‘a sado va so‘z birlan ziyoli nomini olg‘on insonlar lozim emas. Balki, xizmati, harakati, yordami va himmati birlan ziyoli nomini olg‘on insonlar lozimdir...”. Ana shunday millatning rivoji uchun doim harakat qilib kelgan haqiqiy ziyolilardan biri, ilm yo‘lidan o‘zga yo‘lni tan olmagan olim va INSON Rahmatilla aka Barakayevdir.

R. Barakayev ustozdagi men qadrlaydigan eng ajoyib fazilatlardan biri bu Xokisorlik. Hammaga birday munosabatda bo‘lish. O‘zim guvoh bo‘lganim, ish bilan qaysi viloyatdan bo‘ladimi, xoh Farg‘ona, xoh Xorazm, xoh Qarshi, qaysi viloyatdanligidan qat‘i nazar ochiq yuz bilan qarshi oladilar, tadqiqotchilarga kerakli yo‘l topib berib, mushkullarini oson qiladilar.

Ustozdagi biz qadrlaydigan (nazarimda, barcha e’tirof etadi buni) ikkinchi fazilat bu - Xushmuomalalik. Rahmatilla aka hammaga birday muomala qilishlarini bir necha marta kuzatganman. Barchaga bir xil mulozamat qilish, e’tiborli bo‘lish oson emas. Menimcha, bu fazilat u kishiga oilada- ota –onadan yuqqan bo‘lsa kerak. Negaki, u kishining opalari bilan bir ko‘chada yashaganmiz. Otamning hovlilariga yaqin edi uylari, doim xushsurat, Naim amakimizga kelin bo‘lib tushgan bu yanga sizni xushmuomalalik bilan qarshi olar edilar, hozir sakson yoshdan oshgan bo‘lsalar ham hammaga jon-jonlab gapiradilar. U kishining sevimli ukalaridan biri Rahmatilla aka ham doimo tabassum bilan ko‘nglingizni olishga, qanaqa yumushingiz bo‘lsa, chin dildan ko‘mak berishga oshiqadilar. Shuning uchun bo‘lsa kerak, uzoq yillardan beri institutda ilmiy kotib vazifasini chin dildan o‘tab kelmoqdalar. O‘z ishlariga o‘ta mas’uliyat bilan qaraydilar. Qachon borsak, kabinetda ko‘ramiz, hatto hech kim ishga kelmagan taqdirda ham ustozni ish



o‘rnidan topasiz. Institutga keladigan tadqiqotchilar shuning uchun to‘g‘ri Rahmatilla akaning kabinetlariga qarab keladilar.

Olimning yana bir barcha uchun ibrat bo‘ladigan jihatlari - bu Ustozlarga hurmat ko‘rsatish. Ustozlarni qadrlashni biz Rahmatilla akadan o‘rgansak bo‘ladi. Bir kuni 2010-yillar, doktorlik dissertatsiyam tashvishlari bilan yurgan kezlarim. Ustozim, akademik B.Nazarov (Olloh rahmatiga olsin!) bilan instituga kirib kelar ekanmiz, ustoz, avval, Rahmatillaning xonasiga kiraylik-chi, nima gap? deb meni kabinetga boshladilar. Kompyuterda ishlab o‘tirgan Rahmatilla aka: - E, keling, keling, Baxtiyor Aminovich, deb ustoz bilan quyuc so‘rashib, bir piyola choy berib o‘tirishga undadilar. So‘rashib bo‘lgandan keyin, “Mana bu kitobni sizga bir tadqiqotchi qo‘yib ketdi, mana bu qog‘oz qaysidir institutdan sizga kelgan ekan” deb domlaga bir kitob bilan varaqni uzatdilar. Yangiliklar haqida biroz gaplashib, keyin ustozning kabinetlariga yo‘l oldik. Zinapoyadan chiqarkanmiz, “- Ko‘rdingizmi, hamma xabarlar, yangiliklar Rahmatillada bo‘ladi. Shuning uchun ishga keldikmi, avval, Rahmatillaga uchraymiz. O‘z ishiga bunday mas’uliyat bilan qaraydigan odamlar bugungi kunda juda kam-da, deb qo‘ydilar.

Xuddi shunday holatni akademik To‘ra Mirzayev, yirik navoiyshunos olim Ibrohim Haqqulovlar bilan suhbatlarda ham kuzatganman. Ayniqsa, Rahmatilla aka To‘ra Mirzayevni otalaridek hurmat qilardilar, doim avaylab-asrashga harakat qilardilar, mehribonlik ko‘rsatardilar. Ustozlarga e‘tibor va hurmat-izzatni bugun muborak 70 yoshini qarshilayotgan olimdan o‘rgansak arziydi.

Buyuk rus muallimi Suxomlinskiydan hayotingizda nimani eng muhim deb hisoblaysiz deb so‘raganlarida “Bolalarga muhabbat” deb javob bergan ekan. Bolalar yozuvchilar, shu bilan birga bolalar adabiyotining tadqiqotchilari, tanqidchilarida ham ayni shu fazilat bo‘lishi lozim. Ustozimiz, professor O.Safarov shu fazilatni o‘zlarida jamlagan, bolajon katta olim edilar (Olloh rahmat qilsin!). Bolalar adabiyotining nozik kuzatuvchisi, tanqidchisi R.Barakayevda ham ustozimizdagi ayni shu xislat ustuvor ekanligini ko‘ramiz. Shaxsiyatlaridagi bolajonlik ijodiy faoliyatlariga ham ko‘chgan. Olimning bolalar adabiyotiga bag‘ishlangan qaysi tadqiqotlari, maqola yoki taqrizlarini olib qaramang, bolalarga, ularning adabiyotiga muhabbat hissi yuqori ekanligini ko‘ramiz. Rahmatulla Barakayev o‘z tadqiqotlarida G‘afur G‘ulom, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Quddrat Hikmat, Po‘lat Mo‘min, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab kabi ijodkorlarning merosini sidqilidan o‘rganib kelayotganlari fikrmizga misol bo‘la oladi. O‘zbek bolalar adabiyotining tadqiqida R.Barakayev va u kishi yetishtirayotgan shogirdlarining hissasi katta. Ana shunday fidoyi, e‘tiborli, ilm-fan yo‘lida barchaga birday e‘tibor bilan qaraydigan, shirin so‘zini ayamaydigan Rahmatilla akadek olimlarning, shu



**“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI”  
MAVZUSIDA XALQARO ILMIY-NAZARIY OFLAYN-ONLAYN ANJUMANI**

**PROFESSOR RAHMATULLA BARAKAYEVNING 70 YILLIGI**

<b>O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya</b>		
<b>No</b>	<b>Paper Title</b>	<b>Page No</b>
<b>RAHMATULLA BARAKAYEVNING ILMIY IJODI VA UNING AHAMIYATI</b>		
1.	<b>RAHMATLARDAN BARAKA TOPGAN OLIM</b> Abduvahob Madvaliyev	8-12
2.	<b>RAHMATULLA BARAKAYEV VA UNING OLIMONA FAOLIYATI</b> Hamidulla Boltaboyev	13-14
3.	<b>RAHMATILLA BARAKAYEV – OLIMNING HAYOT VA ILM YO‘LLARIGA CHIZGILAR</b> Ulug‘bek Hamdamov	15-21
4.	<b>BOLALAR ADABIYOTINING FIDOYI OLIMI</b> Qurdosh Qahramonov	22-25
5.	<b>BOLALAR ADABIYOTINING ZUKKO BILIMDONI</b> Jabbor Eshonqulov	26-29
6.	<b>RAHMATULLA BARAKAYEV HAQIDA</b> Suvon Meli	30-34
7.	<b>RAHMATNING BARAKASI</b> Sultonmurod Olim	35-39
8.	<b>BOLALAR ADABIYOTI VA TARBIYA</b> Nishonboy Husanov	40-43
9.	<b>OLIMNING YIGIT YOSHI</b> Zuhriddin Isomiddinov, Zuhriddin Isomiddinov	44-46
10.	<b>RAHMATULLA BARAKAYEV HANGOMALARI</b> Ergash Ochilov	47-57
11.	<b>HAQIQIY ZIYOLI YOKI BARCHANING RAHMATILLA AKASI...</b> Shoira Axmedova	58-60
12.	<b>YUZI NURGA, QALBI DURGA TO‘LIQ USTOZ</b> Dilrabo Quvvatova	61-62
13.	<b>RAHMATULLA BARAKAYEV SHAXSIYATIGA CHIZGILAR</b> G‘ayrat Murodov	63-66
14.	<b>BOLALAR ADABIYOTINING NOZIKTA‘B ZARSHUNOSI</b> Laylo Sharipova	67-70
15.	<b>BOLALAR ADABIYOTINING TOLMAS TADQIQOTCHISI</b> G‘ayipov Dilshod Qadambayevich	71-74
16.	<b>ILM YO‘LIDA FIDOYILIK....</b> Sabirova Nasiba Ergashevna	75-77
17.	<b>QALBI DARYO USTOZ</b> Baxshillo Ashurov	78-80
18.	<b>ZAHMATKASH USTOZ</b> Dilorom To‘rayeva	81-83
19.	<b>BOLALIKKA OSHUFTA QALB EGASI...</b> Nusratova Hamida Cho‘liboyevna	84-85
20.	<b>MEHR KO‘RGAN, MEHR QO‘YGAN USTOZIM</b> Zafar Mamatalimov	86-90
21.	<b>BOLALARNI USTOZ BILGAN USTOZIM</b> Zafar Mamatalimov	91-94
22.	<b>USTOZGA EHTIROM</b> Dilrabo Igamuratova	95-97
23.	<b>MEHRI UMMON, QALBI DARYO, OLIMLARNING OLAMIDAGI USTOZ</b> Musayeva Shaxlo	98-99
24.	<b>BOLALAR ADABIYOTINING NUKTADON OLIMI</b> Jumayev Farhod Akmamatovich	100-102
25.	<b>RAHMATULLA AKAGA</b> Dilshod Rajab <b>RAHMATILLO USTOZGA</b> Xudoyberdi Komilov <b>QUTLUG‘ MA‘RAKA</b> Ravshan Isoq	103-109